

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
DEZINFEKSIYA ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DEZINFEKSIYA ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Dezinfeksiya ishi fani talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Dezinfeksiya ishi

1. Infeksiya nazorati va infeksiyon xavfsizlik
2. Dezinfeksiya haqida tushuncha.
3. Sterilizatsiya haqida tushuncha.
4. Dezinseksiya va deratizasiya haqida tushuncha

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Infeksiya nazorati va infeksiyon xavfsizlik	Infeksiya haqida tushuncha, infeksiyaning yuqish yo‘llarini, kasalxona ichki infeksiyasi haqida tushunchani, davolash va profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora tadbirlar bo‘yicha amaldagi asosiy buyruqlarni, dezinfeksiya va sterilizatsiya haqida tushunchalarni, shifoxona ichki infeksiyaga qarshi o‘tkaziladigan chora tadbirlar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	8 ta
2	Dezinfeksiya haqida tushuncha.	Davolash va profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora tadbirlar bo‘yicha amaldagi asosiy buyruqlar: Dezinfeksiya turlari haqida tushuncha. Dezinfeksiyalovchi vositalar bilan ishlaganda texnika xavfsizligi. Dezinfeksiya usullari. Infeksiya nuqtai nazaridan hamshiraning profilaktik chora tadbirlar bilan ishlash xususiyatlari. Infeksiya yuqishini oldini olish maqsadida hamshira salomatligini saqlash choralari. OIV va OITS ni oldini olish chora tadbirlar bo‘yicha maxsus qo‘llanma. Asseptika va antiseptika haqida tushuncha. Bog‘lov ashyolari turlari va zararsizlantirish usullari.	8 ta
3	Sterilizatsiya haqida tushuncha.	Sterilizatsiya haqida tushuncha. Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiyani foydali o‘tkazishning asosiy qoidalari. Kasalxonadagi muolaja xonasida infeksiyon kasalliklarni oldini olish choralari. Sterilizatsiyaga oid SSV tomonidan chiqarilgan amaldagi yangi buyruqlar bilan tanishtirib borish.	12 ta
4.	Dezinseksiya va deratizasiya haqida tushuncha	Dezinseksiya va deratizasiya haqida tushuncha. Dezinseksiya va deratizasiya usullari	12 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

- 1.Hamshiralik ishi asoslari. K.O‘. Zokirova, D.O‘. To‘xtamatova, Toshkent-Ilm Ziyosiyoti-2007
- 2.Hamshiralik ishi asoslari. Q.S. Inomov. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2007.
- 3.Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya.El Musaboyev,A.Q.Bayjanov. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2007.
4. Hamshiralik ishi asoslari. K.O‘. Zokirova, D.O‘. To‘xtamatova, S.A. S.A.Mirzaboyeva Toshkent-Ilm Ziyosiyoti-2017
- 5.O‘zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari va me‘yorlari.Shifozona ichi infeksiyalari profilaktikasi.SanQvaM №03,42,-17.Toshkent-2017
- 6.M.F.Ziyayeva Xirurgik kasalliklar bilan og‘rigan va intensiv terapiyani o‘tayotgan bemorlarda hamshiralik parvarishi.Toshkent-2017

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan*